# TURIZMGA MILLIY O'YINLARNING TA'SIRI

***Qurbonov Ibrohim***
*Toshkent Kimyo Xalqaro*
*Universiteti Turizm yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola O'zbekiston bo'ylab turizmni rivojlantirish va milliy o'yinlar orqali turistlarni jalb qilish haqida yozilgan. Buning natijasida, turizmning rivojlanishida milliy o'yinlar ahamyatli o'rin egallaydi.

**Kalit so'zlar:** Turizm, madaniy turizm, qishloq, sport, uloq

**Kirish**

Hozirgi kunda milliy o'yinlarning ta'siri borgan sa'ri muhim va nazariy bo'lib kelmoqda. Milliy o'yinlar,bir davlatning,bir xalqning yoki bir jamyatning milliy qadiryati,tarixi va madaniyatini ifodalovchi amallardir. Turizm esa bir davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Bu nuqtada, milliy o'yinlar turizm sohasiga ko'p o'zgarishlar kiritishga yordam beradi.

Mlliy o'yinlar turistlarga o'z mamlakatimizning asosiy madaniyatini ko'rish imkoniyatini beradi. Misol uchun, Ispaniyada korrida, Meksikada kviddich yoki Hindistonda kriket sayyohlarni jalb qiladigan noyob madaniy tadbirlardir. Milliy o'yinlar odatda mahalliy jamoalar tomonidan o'tkaziladi va ularga turizmdan keladigan daromadlar bir qismini olish imkonini beradi, bu esa mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantiradi va ish o'rinlari yaratadi[1]

O'yinlar mamalakatni boshqa yo'nalishlardan ajratib turishi bilan sayyohlar e'tiborini o'ziga jalb etadi. Masalan Tailandning muay-tay kikboksingi mamlakatni jang san'ati ixlosmandlari uchun jozibali joyga aylangan.

Markaziy Osiyo va O'zbekistonda ham juda mashhur milliy o'yinlarda eng sara o'tqazilayotgan Uloq o'yinidur. Bu o'yin qadimgi o'rta osiyo xalqlarining qadimiy ommaviy milliy o'yinlaridan biri. Asosan, g'alaba va hosil bayramlari, to'y va sayillar munosabati bilan o'tkazilgan. Navro'z bayramlarida ham milliy o'yinlarni kuzatishimiz mumkun bulardan, quvlashmachoq, lanka, eshakmindi, ot o'yini, qiz quvdi, kurash, oq terakmi-ko'k terak, kes-kes, kabi ko'plab o'yinlar mavjud[2].

Qolaversa o'zbek milliy o'yinlari xalqimiz orsida avloddan-avlodga o'tibkelyotgan va turkiy davlatlar orasida ham saqlanib qolgan. Bulardan uloq, dorbozlik, qilichbozlik nayza uloqtirish, tosh ko'tarish kabilar eng qadimiy o'yinlardan hisoblanadi[3].

Hozirda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida milliy o'yinlar ta'sirida turizmi rivojlangan. Misol uchun, Ispaniya, Hindiston, Meksika, Arabiston, Yaponya, Tailand, Italya mamlakatlarida turistlar uchun alohida binolar va o'zlarining sport turiga qo'shishgan musobaqalarini tashkil etishgan.

Prezidentimizning 2024 – yil O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida Uloq o'yinini sport turiga qo'shish va diyorimiz hududlarida alohida joylar tashkil etish,turizm salohiyatini hisobga olgan holda yangi turizm dasturlarni ishlab chiqish vazifalari belgilangan[4].

Xulosa

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish turistlarni e'tiborini jalb qilish, milliy o'yinlar madaniyatlarini nishonlash, milliy g'urur va o'zlikni namoyon etishda muhum ro'l o'ynashi mumkun. Negaki, barcha turistlar yo ichki yo tashqi turist bo'lsin bundan qat'iy nazar biznig qadiryatlarimizni ko'rishi va turizm tarmog'imizdan foydalanadi. Inson doim yangi qadiryatlarga, urf-odatlarni bilishga qiziqadi va shuning uchun sayohat qilishadilar.

Xulosa qilib aytganda, har bir sohaning rivojlanishini yuqoriga qarab intilishi bu oson masala emas. Kuchli mehnat va tashabbus orqali yuksaladi va rivojlanadi. Turizmning sayohat yo'nalishi esa shuning bir qismi va salohiyati yuqori bo'lgan xizmat turlaridan biridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respuplikasi Konstitutsiyasi T. "O'zbekiston"
2. Т.С.Усмонхужаев., А.А.Пулатов., Ш.А.Пулатов., Д.Х.Абдуллаев. «Теория и практика национальных подвижных игр». Ташкент 2014

3. Международный научный журнал часть «Научный Фокус» А.Н.Насиллоев Ташкент 2015

4. O'zbekiston Respublikasi Turizm to'g'risidagi farmoni.2024y.